

MASALALARINI YECHISH ORQALI MATEMATIK TASAVVURNI KENGAYTIRISH

Ashirbekova Nargiza Berdimurod qizi

Nazirova E'zoza Ikrom qizi

Umirov Sherzod O'ktam o'g'li

Uralov Dilshod Xayrulla o'g'li

O'zMU Jizzax filiali talabalari

Ilmiy rahbar: Sharipova Sadoqat Fazliddinovna

O'zMU Jizzax filiali o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada muktab o'quvchilarining masalalar yechish orqali matematik tasavvurini rivojlantirish uchun o'qituvchi zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda darslar olib borilishi kerakligi haqida so'z borgan. Bu esa ta'lif sifatini ham oshirishning muhim omillaridan biridir.

Kalit so'zlar: Masala, matematik tasavvur, geometrik figura, zamonaviy axborot texnologiyalari.

Аннотация: В данной статье сказано, что для развития математического воображения школьников путем решения задач учитель должен проводить уроки с использованием современных информационных технологий. Это один из важных факторов повышения качества образования.

Ключевые слова: задача, математическое воображение, геометрическая фигура, современные информационные технологии.

Annotation: In this article, it is said that in order to develop the mathematical imagination of schoolchildren by solving problems, the teacher should conduct lessons using modern information technologies. This is one of the important factors of improving the quality of education


Keywords: Problem, mathematical imagination, geometric figure, modern information technologies

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 7-maydagi PQ-4708- son O'zbekistonda matematika sohasidagi ta'lif sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qaroriga muvofiq O'zbekistonda matematika 2020-yildagi ilm-fanni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanishi, o'tgan davr ichida matematika ta'lmini yangi sifat bosqichiga olib chiqishga qaratilgan qator tizimli ishlar amalga oshirildi.

2023 yil "Insonga e'tibor va sifatli ta'lif" deb nomlanishi esa PQ-4708 qarori ijrosining mantiqiy davomi desak adashmaymiz. Hozirgi zamonaviylashuv sharoitida



ta'lim tizimini rivojlangan mamlakatlar darajasiga olib chiqish va shu orqali mamlakatimizda ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga erishish eng dolzarb muammolardan biriga aylanib qoldi. Ma'lumki, o'rta umumta'lim maktablarida o'quvchilarning fanlarni o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini oshirmsadan turib, ularni chuqur anglangan bilimlarni egallahlariga erishish mumkin emas. Shuningdek, bugungi zamonaviy ta'limning eng asosiy talablaridan biri bo'lgan o'quvchilarning bilim egallahga bo'lgan faolilagini oshirish va shu asosida mustaqil bilim olish malakalarini shakllantirishga erishmasdan turib, ta'lim maqsadlariga samarali erishib bo'lmaydi.



Matematika o'qitish jarayonida ta'lim-tarbiya tamoyillariga asoslangan holda o'quvchilarning matematika faniga bo'lgan qiziqishlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalarning imkonyatlaridan foydalanib tashkil etish muhimdir. Hozirgi kundagi zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanib o'quvchilarning matematikaga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish, ularni geometrik figuralarni tasavvur qilishi uchun zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda ko'rsatib berish orqali tasavvurni yanada kengaytirish mumkin.

Maktab matematika darsliklarida berilgan masalalarni ishlash uchun avvalo o'quvchilarning tassavuri keng bo'lishi kerak. Ya'ni, masala nima haqida berilganligi va nimani topish kerakligini aniq ajrata bilishi shart. Buning uchun esa uning tasavvuri keng bo'lishi lozim. Masalan 6-sinf matematika darsligida berilgan quyidagi masalani qaraylik: Uchburchakning bir tomoni ikkinchi tomonidan 3 sm qisqa, uchinchi tomonidan esa 2 sm uzun. Uchburchakning perimetri 52 sm bo'lsa, uning tomonlari uzunligini toping.

Bu masalani ishlashdan oldin o'quvchi uchburchak nimaligini bilishi, uni hayolida tasavvur qila bilishi lozim. Uchburchakni tasavvur qilgandan keyin esa uning tomonlarini belgilay olishi va qaysi tomoni eng uzuni va qaysi tomoni eng qisqa ekanini ajrata bilishi kerak. Bu tushunchalar haqida tasavvurga ega bo'lgandan keyin uning tenglamasi tuziladi va masala yechiladi.

Berilgan tomonini x deb olsak, katta tomoni x dan 3 sm uzun, kichik tomoni esa x da 2 sm qisqa bo'ladi va tenglamasi quyidagicha tuzib ishlanadi:

$$(x - 2) + x + (x + 3) = 52$$

$$x - 2 + x + x + 3 = 52$$

$$3x = 51 \quad x = 17$$



Demak, uchburchakning tomonlari, 15 sm, 17 sm va 20 sm ekan. Masalani ishslashda uni nima haqida ekanligini tasavvur qilib, masalaning mazmun-mohiyatini anglab olish muhum ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak maktab o‘quvchilarini matematikaga bo‘lgan qiziqishini oshirishda matematik tasavvurni rivojlantirish muhum ahamiyatga ega. Shuning uchun ularga qo‘yilayotgan masalani zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda ko‘rsatib berilsa ta’lim sifatining rivojlanishiga olib keladi. Geometrik masalalarni yechishda qo‘yilgan masalaning chizmasini tasavvur qilib, uni to‘g‘ri va aniq qilib chizish orqali masalani osongina yechish mumkin. Shunday ekan masalalarni yechish orqali o‘quvchilarning matematik tasavvurini rivojlanishiga mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. M.A.Mirzaaxmedov, A. A. Rahimqoriyev, Sh.N Ismailov, M.A.To‘xtaxo‘djayev “Matematika 6-sinf” O‘qituvchi nashriyoti. Toshkent 2017.
2. G.B.Quzmanova “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida matnli masalalarning ta’limiy axamiyati” Academic research in educational sciences , Issue 3, 2021
3. G.E.Djanpeisova, B.N.Xodjimuratova “Matematik tasavvurlarni shakllantirish” o‘quv qo’llanma. Toshkent 2020.
4. D.Q.Asqarova “Matematik tasavvurlarni shakllantirish nazariyasi va metodikasi” o‘quv qo’llanma. Namangan 2020.